



SOLIQ TO‘LOVCHILARNING SOLIQ QARZDORLIGINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI

Bank-moliya akademiyasi magistranti

Jabbarov Javohir Norbuta o‘g‘li

Jabbarov_jn@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada soliqlarning davlat iqtisodiyotidagi ahamiyati tadqiq qilingan hamda bugungi kunda mamlakatda soliq qarzdorligini kamaytirish dolzarb masalalardan biri ekanligi asoslangan. Soliq qarzdorligini kamaytirish bo‘yicha xorijiy iqtisodchi olimlarning fikr va mulohazalari o‘rganilgan. Yuridik shaxslarning, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq qarzlarini tahlil qilingan. Rivojlangan mamlakatlarda soliq qarzdorligini undirishning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, respublikamizdagi soliq qarzi ortishining soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar tushumiga bog‘liqligi tahlil etilib, xorij tajribasiga tayangan holda ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Yuqorida qayd etilgan holatlardan kelib chiqib, mamlakatimizda soliq qarzdorligini qisqartirish, shu jumladan, uni samarali undirish amaliyotini takomillashtirish borasida taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: mahalliy soliqlar, soliq, soliq qarzi, qarzdorlik, soliq majburiyati, soliqqa oid huquqbazarlik, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq organi, soliq to‘lovchilar, yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, soliq yuki, soliqlar va yig‘imlar, soliq qarzdorligi, davlat, budget.

Annotation: In this article, the importance of taxes in the state economy is studied, and today it is based on the fact that reducing tax debt in the country is one of the pressing issues. Opinions and opinions of foreign economists on reducing tax debt have been studied. The tax debts of legal entities, including individual entrepreneurs, were analyzed. In developed countries, the specifics of tax debt collection have been researched. Also, the dependence of the increase in tax debt in our republic on the income of taxes and other mandatory payments was analyzed and scientific proposals and practical recommendations were developed, relying on foreign experience. From the above cases, proposals and recommendations have been formulated in our country on reducing tax debt, including improving the practice of its effective collection.



Keywords: Local taxes, tax, tax debt, indebtedness, tax liability, tax infringement, tax revenues, tax benefits, tax authority, taxpayers, legal entities, individual entrepreneurs, tax burden, taxes and fees, tax arrears, state, budget.

Kirish

Jahon mamlakatlarida soliq qarzlari ortib borishining asosiy sabablaridan biri sifatida soliq yukining yuqoriligi ko'rsatiladi. Jumladan, soliq yuki Estoniya davlatida 48 foizni, Fransiya davlatida 46 foizni, Ukraina davlatida 44,5 foizni, Litva davlatida 42 foizni, Rossiya Federatsiyasida 41 foizni, Ozarbayjon davlatida 40,5 foizni, Germaniya davlatida 39 foizni, Latviya davlatida 38,5 foizni va Belorussiya davlatida 33,9 foizni tashkil etadi¹. Mazkur ko'rsatkichlar mamlakatda faqat soliq qarzining kelib chiqishiga sabab bo'lmasdan, balki ushbu mamlakatlarda investorlarning kirib kelishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi hamda yashirin iqtisodiyotning oshishiga ham olib keladi.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning dastlabki yillaridan boshlab mustaqil soliq siyosati yaratildi hamda uning strategiyasi ishlab chiqilib, hozirgi kunda izchil takomillashtirilib borilmoqda. Xususan, soliq siyosatini takomillashtirishning bir qismi sifatida ish haqi fondidagi soliq yukini pasaytirish va tadbirkorlik subyektlari uchun soliqlarni optimallashtirish bilan ta'minlaydigan ishlar amalga oshirildi. Xususan, 2016-yildan 2021-yilgacha bo'lgan davrda fuqarolar uchun 8 foiz miqdorida majburiy undiriladigan sug'urta badali bekor qilindi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ijtimoiy soliq stavkalari 12 foizgacha, shu jumladan, pandemiya davrida 1 foizgacha pasaytirildi. Bu esa o'z navbatida, ish haqi fondi bo'yicha soliq yukining 1,5 baravaridan ko'proq kamayishiga olib keldi².

Mamlakatimizda soliq sohasida amalga oshirilayotgan qator islohotlar natijasida bugungi kunda soliq yuki 27 foizgacha tushirildi. Shunday bo'lsada, soliq qarzdorligi yildan yilga oshib bormoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish maqsadida 2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 25 foizgacha kamaytirish vazifasi soliq organlariga yuklatildi³.

¹ Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD) – Yevropadagi davlatlar birlashmasi)ning statistik ma'lumotlari. <https://www.oecd-ilibrary.org>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.



Davlat budjeti daromadlarining asosiy qismi soliqlar va yig‘imlar hisobidan shakllanishi hammamizga ma’lum. Soliqlar va yig‘imlarning o‘z muddatida va to‘liq hajmda tushishi davlat miqyosida amalga oshirilayotgan barcha chora-tadbirlarning, ya’ni budget va maqsadli jamg‘armalarning xarajat qismini o‘z vaqtida moliyalashtirishga xizmat qiladi. Shunga ko‘ra, soliqlarning belgilangan muddatda kelib tushishini ta’minalash vazifasi muhim ahamiyatga ega hamda bu, o‘z navbatida, soliq organiga katta mas’uliyat yuklaydi. Shuningdek, soliq to‘lovchilarning soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha soliq qarzdorligini qisqartirish va kelgusida soliq qarzdorliklarining vujudga kelishining oldini olishda zarur chora-tadbirlar ishlab chiqish bugungi kunning e’tibor beriladigan eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARI

Mamlakatda soliq ma’muriyatichilagini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari, shu jumladan, soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha qarzdorlik summalarini qisqartirishning ayrim masalalari qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

Mazkur masala bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan xorijlik olim V. Morozning fikriga ko‘ra, «Soliq to‘lovchilarning soliqlar va soliq qarzini bir xil mazmunda tushunishi chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Hech qachon sud yoki soliq organi soliqlarni undirmaydi. Faqatgina soliq qarzi, penya hamda moliyaviy sanksiyalar undirishni talab etadi. Hattoki, soliq qarzi ham undirilmay, balki ixtiyoriy ravishda to‘lanishi mumkin. Aynan shu xulosa soliq qonunchiligidagi belgilab qo‘yilsa va buning natijasida fuqarolarning huquqiy ongida ham aks etsa, soliq to‘lovchilar uchun soliqlar «erkinlik» belgisi sifatida ham namoyon bo‘ladi»⁴.

Xorijlik olim Michael Brostek esa o‘z tadqiqotida soliq qarzi undirilishining samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi omillarini ko‘rsatib o‘tadi, xususan:

- mamlakatda soliq qarzi summalarining paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘yishning oldini olishda soliq yukini pasaytirish kelajakda soliq qarzdorliklari kamayishiga olib keladi;
- muddatida to‘lanmagan soliqlar va yig‘imlarni undirish strategiyasi faqat belgilangan davr mobaynida o‘z ijobjiy natijasini beradi⁵.

⁴ Мороз В.В. Налоговое администрирование задолженности организаций по налогам и сборам: проблемы взыскания. Дис. канд. экон. наук. – М., 2011 г.

⁵ Michael Brostek. Tax debt collection IRS needs to better manage the collection notices sent to individuals. // United States government Accountability office. 2009. P-27.



Bu borada rus tadqiqotchilari S.N.Alixin va D.A.Levacheva o‘z ilmiy tadqiqotlarida soliq qarzini undirish mexanizmining nazariy asoslarini keltirib o‘tishgan. Unga ko‘ra, ular soliq qarzini undirish soliq bazasini kengaytirish bilan birgalikda uni soliq to‘lovchidan undirish murakkabligini ta’kidlab, bu jarayonga alohida yondashuvni inobatga olgan holda soliq qarzi mavjud bo‘lgan tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy holatidan kelib chiqib undirish mexanizmni ishlab chiqish kerakligini ta’kidlashgan⁶.

Bundan tashqari I.G.Vinoxodova ham o‘zining ilmiy ishida soliq qarzlarini undirishda soliq qarzi mavjud xo‘jalik yurituvchi subyektlardan molmulklarini xatlash jarayonini ko‘paytirish samarali natija berishini aytib o‘tadi⁷.

Mahalliy iqtisodchi olimlarimiz A. Tangriqulov va Sh. Toshmatovlar fikricha, soliq qarzlarining nazariy jihatdan vujudga kelish sabablari quyidagilardan iborat:

- o‘zaro moliya-xo‘jalik munosabatlarda bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan to‘lov intizomiga rioya qilmaslik va buning oqibatida debtorlik, kreditorlik qarzlarining oshib ketishi;
- moliya-xo‘jalik faoliyatini rejalashtirish va bu faoliyatni noto‘g‘ri boshqarish;
- xo‘jalik yurituvchi subyektning mahsulotiga (bajarilgan ish va xizmatlarga) iste’mol talabining keskin o‘zgarishi;
- ishlab chiqarilgan mahsulotning (bajarilgan ish va xizmatlarning) sifati buyurtmachining yoki bozor talabiga javob bermasligi⁸.

Shuningdek, I. Niyazmetovning ta’kidlashicha, soliq qarzi yuzaga kelishini “QQS va mulkiy soliqlar yukining, asosan, sanoat korxonalari zimmasiga yuklatilganligi soliq yukining notekis joylashuviga, sanoat korxonalari soliq yukining nisbatan og‘ir bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa korxonalarda soliq qarzi muammosini tugatishga yo‘l bermaydi. Soliq qarzlarining katta qismi umumbelgilangan soliqlar kesimiga to‘g‘ri keladi. Bu esa soliq yukining umumbelgilangan tartibda soliq to‘lovchi korxonalar moliyaviy faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan darajada og‘irligidan dalolat beradi”⁹.

A. Jo‘rayevning “Davlat budgeti daromadlarini shakllantirishning dolzarb muammolari” mavzusidagi doktorlik tadqiqot ishi davlat budgeti daromadlarini shakllantirish borasidagi muammolarni tahlil qilishga bag‘ishlagan. Aynan ushbu

⁶ Алихин С.Н., Левачева Д.А. Эволюция механизма принудительного взыскания задолженности перед бюджетом. // Налоги. 2018 г. С. 28.

⁷ Виноходова И.Г. Совершенствование практики взыскания задолженности организаций по налогам и сборам. // Научное статья, 2019 г. С. 22.

⁸ Tangriqulov A., Xomma A., Toshmatov Sh., Norqo‘ziyev I., Roziqov N. Soliq qarzi va uni undirish. O‘quv qo‘llanma. – Т.: “Yangi asr avlod” nashriyoti, 2010. 51-b.

⁹ Niyazmetov I. Soliq yukining tadbirkorlik subyektlari moliyaviy faoliyatiga va budget daromadlariga ta’siri tahlili. Nomzodlik ishi. Avtoreferat. 2008-yil.



tadqiqotda mamlakatimizda ilk bor davlat budgeti soliqli daromadlari ijrosida to‘lov intizomi, soliqlarni undirishda budgetda qarz (boqimanda) vujudga kelish holatlari tadqiq qilingan¹⁰.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy mushohada, statistik kuzatish, statistik grafiklardan foydalanilgan holda qiyosiy tahlil, ma’lumotlarni guruhlash, absraktmantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqot usullari soliq ma’murchiliginini, xususan, soliq qarzdorligini qisqartirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha xulosa va takliflarni shakllantirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda zamonaviy soliq qarzdorligini majburiy undirish mexanizmlarini takomillashtirishi balki, mazkur soliq qarzdorligini zamonaviy axborot telekommunikatsiya texnologiyalari orqali soliq to‘lovchilar tomonidan ixtiyoriy to‘lash bo‘yicha huquqiy savodxonligini oshirishga yo‘naltirilgan targ‘ibot va tushuntirish ishlariga e’tiborini kuchaytirish samaraliroq hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 maydag‘i “Hisob-kitob tizimini takomillashtirish va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning to‘lov intizomini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-141-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 sentyabrdagi “Ta’sirchan soliq mexanizmini qo‘llash natijasida hosil bo‘lgan soliq qarzini hisobdan chiqarish to‘g‘risida”gi PF-218-son Farmonini qabul qilinishi jismoniy shaxslardan olinadan soliqlarni undirish mexanizmini takomillarshtirishni muxim bosqichi hisoblanadi. Xususan, manfaatdor shaxs soliq to‘lashni kechiktirish huquqi to‘g‘risidagi xabarnomani yer uchastkalari, binolar va inshootlarga bo‘lgan mulk huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran uch oy ichida soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yer uchastkalari, binolar va inshootlarga bo‘lgan mulk huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tganligining qayd raqamini va sanasini ko‘rsatgan holda soliq organlariga yubororilishi, kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash davrida amalda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasiga teng stavkadan kelib chiqqan holda, 50 foizi miqdorida foizlar hisoblanishi Soliq kodeksining 100-moddasiga kiritildi. Umumiyligi ovqatlanish korxonalariga aylanmadan olinadigan soliq, foyda solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha yuzaga kelgan qarzdorlikni, shuningdek barcha soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha jarimalar

¹⁰ Jo‘rayev A. Davlat budgeti daromadlarini shakllantirishning dolzarb muammolari. Doktorlik ishi. Avtoreferat. T., 2006-yil.



hamda penyalarni mahalliy davlat hokimiyati organlariga ariza yubormasdan, soliq organlarini xabardor qilgan holda foizlarni to‘lamasdan, teng ulushlarda kechiktirib (bo‘lib-bo‘lib) to‘lash huquqi berish yuzasidan berilgan takliflari Soliq kodeksining 482-moddasidaga aks etdi. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning to‘lov intizomini yanada mustahkamlash maqsadida tijorat banklarida ochilgan qonunchilik hujjatlariga muvofiq undiruvga yo‘l qo‘yilmaydigan maxsus maqsadli hisobvaraqlari tugatish, bunda tugatilgan maxsus maqsadli hisobvaraqlaridagi mablag‘lar qoldig‘i ularning asosiy yoki ikkilamchi hisobvaraqlariga o‘tkazish vakolatini Vazirlar Mahkamasining qarori asosida tartibga solinish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 maydag‘i PF-141-soni Farmonida tasdiqlandi. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 sentyabrdagi PF-218-son Farmonida tasdiqlanib, foydalanilmayotgan ob’ektlar mulkdorlariga nisbatan oshirilgan stavkalarda qo‘llanilgan ta’sirchan soliq mexanizmi natijasida hosil bo‘lgan mol-mulk solig‘i va yer solig‘i bo‘yicha mavjud soliq qarzi hisobdan chiqarilishi hamda soliq qarzini undirish bilan bog‘liq sud va ijro ishlari tugatish kiritish vakolati berildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 maydag‘i PF-141-soni Farmoniga asosan tijorat banklarida 624,5 mingta maxsus maqsadli bank hisobvaraqlariga ega 185,6 mingta xo‘jalik yurituvchi sub’ektlardan 178,1 mingtasining 489,7 mingta bank hisobvaraqlari 2022 yil 15 iyundan tugatildi. Maxsus maqsadli hisobvaraqlardan foydalanish ustidan doimiy monitoring olib borish tizimi yaratildi. Olib borilagan monitoring natijalari 22,1 mingta korxona tomonidan 28,8 ming holatda mablag‘lardan maqsadsiz foydalanligi va boshqa kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganligini ko‘rsatdi. Xususan, “O‘zdonmahsulot” AK 67 holatda, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tasarrufidagi korxonalarda 56 holatda, Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasi 53 holatda, O‘zuvta’mnot AJ tarkibidagi korxonalar 30 holatda va qishloq xo‘jaligi korxonlari 28,5 ming holatda kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan. Soliq qarzi mavjud bo‘lgan “Toshkent” fermer xo‘jaligiga maxsus maqsadli hisobvaraqlaridan paxta va g‘allani sotishdan tushgan pul mablag‘lari hisobidan bank kreditlarini so‘ndirishga ruxsat berilgan bo‘lsada, tartibga zid ravishda yengil avtomobil (1 ta Chevrolet Equinox LT 9AT) sotib olish uchun 318,5 mln.so‘mlik to‘lovlar amalga oshirgan. 22 ta korxona tomonidan 3,6 mlrd. so‘mlik mablag‘lar maxsus maqsadli hisobvaraqlarga asossiz kirim qilinib, maxsus maqsadli hisobvaraqlariga faqat paxta va g‘alla sotishdan tushadigan pul mablag‘larini kirim qilishga ruxsat berilgan holda, 46,8 mln. so‘mlik soliq qarzi mavjud bo‘lgan “Norqobilov Humoyun” fermer xo‘jaligi tomonidan tartibga zid



ravishda 1,0 mlrd. so‘mlik moliyaviy yordam mablag‘larini kirim qilgan. Ular 337 ta korxona soliq bazasini yashirish, imtiyozlardan noto‘g‘ri foydalanish, narxlarni pasaytirib (ko‘paytirib) ko‘rsatish, ish xaqi fondini yashirish, bank aylanmalari daromadlarni hisob reestrlarida aks ettirmaslik va boshqa mezonlar asosida baholash natijalariga ko‘ra soliq xavf darajasi oshishiga yo‘l qo‘ygan. Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 13 iyundagi 329-son qarorining 5-bandiga asosan o‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi korxonalarining 4,2 mingtasi tomonidan maxsus maqsadli hisobvaraqlar orqali bank aylanmalari amalgalash oshirilmaganligi hamda 2,2 mingtasida (shundan, 603 tasida 66,1 mlrd. so‘m bank aylanmasi mavjud) yer maydonlari mavjud bo‘lmaganligi aniqlanib, yer maydoni mavjud bo‘lmagan “Dilnura paxta g‘alla dalasi” fermer xo‘jaligining maxsus hisobvarag‘idan 118,8 mln. so‘m bank aylanmasi mavjud bo‘lsada, 270,3 mln. so‘mlik soliq qarzidan biror so‘mi ham to‘lanmagan.

Rivojlangan xorijiy davlatlarni Soliq qarzini undirish bo‘yicha xorijiy davlat amaliyotlarini tajribalarini taxlil qilib ko‘rsak:

AQSh davlatida;

Xat ko‘rinishida xabarnoma beriladi va bunda soliq qarzi, hisoblangan penyalar, foizlar to‘liq ko‘rsatiladi. (10 kunda to‘lanmasa mol-mulkulari arest qilinadi)

Har oyda muddati o‘tkazib yuborilgani uchun shtraf qo‘llaniladi.

To‘lash imkoniyati bo‘lmasa har oyga bo‘lib-bo‘lib to‘lash uchun shartnomalar tuzish mumkin (shartnomani, internet orqali yoki xatda ko‘rsatilgan nomeraga telefon qilib rasmiylashtirish mumkin).

Undiruvni tuxtatib turish bo‘yicha murojaat qilish mumkin bundan penya hisoblanishi to‘xtatilmaydi.

Soliq organi tomonidan to‘lab berish qobiliyati mavjud emas deb topilsa, barcha mol-mulkularini arest qilib sotib yuborish, oyliklariga, bankdagi hisobraqamlariga, pensiya jamg‘armasiga ham arest quyadi.

Buyuk Britaniya davlatida;

Soliq to‘lashdan bo‘yin tov lash uchun jarimalar:

Yetarlicha extiyotkorlik choralarini ko‘rgan bo‘lsangiz va soliq organlariga xato haqida xabar bergen bo‘lsangiz jarima belgilanmaydi.

Extiyotkorlik choralarini ko‘rmagan bo‘lsangiz yoki soliq summasini to‘lamagan bo‘lsangiz, 30% gacha.

Agar xato qasddan qilingan bo‘lsa, 70% gacha.



Agar xato qasddan qilingan bo‘lsa va siz uni yashirishga harakat qilgan bo‘lsangiz, 100% gacha.

Eng og‘ir jazo hukmi: 3 yildan 17 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yo‘lga qo‘yilgan.

Litva davlatida;

Soliq ssudasi shartnomasi - soliq qarzini to‘lashni kechiktirishning turlari (grafik asosida, ma’lum muddatga kechiktirish va hakoza)

86-moddasiga asosan Soliq organini ruxsati bilan mavjud soliq qarzini boshqa aloqador korxonaga yuklash mumkin.

88-moddasiga asosan, Soliq to‘lovchiga faoliyatiga moliyaviy qiyinchilik keltirib chiqarish holati ko‘zatilsa, shartnomasi (soliq krediti) tuzgan holda soliq qarzini to‘lash muddati uzaytirish mumkin. Bunda, Fuqarolik kodeksiga muvofiq zalog, kafillik bilan ta’minlanadi.

107-moddasiga soliq qarzini undirish davri 5 yil etib belgilangan.

Avstraliya davlatida;

Avstraliya soliq qarzini to‘lash uchun ko‘proq vaqt ajratish uchun soliq to‘lovchilarining so‘rovlariiga javoblarni avtomatlashtiradigan Real vaqtida qarzni boshqarish tizimini yaratish uchun sun’iy aql bilan birga bashoratli modellashtirishni qo‘llaydi. Tizim soliq to‘lovchilar tomonidan belgilanadigan to‘lov shartlarini belgilaydi, ularning prognozlashtirilgan moyilligi va to‘lov qobiliyati asosida qo‘laniladi¹¹.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, so‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan soliq yukining pasaytirilishi, soliq stavkalarining optimallashtirilishi, tadbirkorlik subyektlariga o‘z faoliyatlarini olib borishda qator yengillik va keng imkoniyat yaratilib kelinmoqda. Ammo shunga qaramay, soliq qarzdorligi mavjud bo‘lgan soliq to‘lovchilarimiz talaygina.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan jismoniy shaxslarning soliq qarzini undirishdagi mavjud muammo va kamchiliklarning amaldagi holatini xorij tajribasi bilan taqqoslab, soliqlar belgilangan muddatida to‘lanmaganligi uchun hisoblanadigan penya miqdorini soliqlarning rag‘batlantiruvchi funksiyasi doirasida mamlakatda mavjud inflyatsiya darajasini hisobga olib, qarzdorlikning paydo bo‘lish sabablaridan kelib chiqqan holda qisqartirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

¹¹ Черника Д. (2023) Налоги: учеб. пособие / Под ред.– 2-э. ИНФРА. Стр. 486



Fikrimizcha soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha qarzdorlikni kamaytirish ularni muddatida va to‘liq undirish samaradorligini oshirishda quyidagi takliflar o‘z samarasini beradi deb hisoblaymiz:

1. Germaniya davlatida soliq qarzlaridan voz kechish holatlari ko‘p uchraydi. Bu ayniqsa kichik tadbirkorlik subyektlariga to‘g‘ri keladi. O‘zbekistonda ham ushbu konsepsiyani qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda soliq qarzi kechilayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari kelajakda ishlab ketilishiga ishonch hosil qilinishini e’tiborga olish lozim.

2. Amaliyotda jinoiy ish doirasida o‘tkazilgan soliq auditi natijasida qo‘sishimcha hisoblangan soliqlar, shu jumladan moliyaviy sanksiyalar soliq to‘lovchi tomonidan jinoiy ish o‘tkazgan vakolatli organning deposit hisobraqamiga to‘lanadi, lekin ushbu summa soliq organining bazasida ko‘rinmaydi va soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkasida aks etmaydi. Buning oqibatida soliq to‘lovchining hisobraqamiga avtomat inkasso topshiriqnomasi qo‘yiladi hamda soliq to‘lovchi ikki yoqlama soliq tortilishiga olib keladi. Mazkur masala yuzasidan Soliq kodeksiga tegishli o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

3. Xorij tajribasida soliq qarzini majburiy undirish bilan shug‘ullanadigan alohida xususiy firmalar mavjud. Soliq qarzi uzilmaganda soliq organi mazkur firmalar bilan hamkorlikda undirish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekistonda ham ushbu tizimni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

4. Jismoniy shaxslar tomonidan yer va mol-mulk soliqlari o‘z vaqtida to‘lanishi va ularda to‘lov mas’uliyatini oshirish maqsadida, soliqlarni kechiktirib to‘lagan har bir kun uchun penya hisoblash bilan bирgalikda to‘lov intizomini buzganligi uchun ma‘muriy jarima qo‘llanilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: “Adolat”, 2020
2. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD) – Yevropadagi davlatlar birlashmasi)ning statistik ma’lumotlari. <https://www.oecd-ilibrary.org>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.



5. Мороз В.В. Налоговое администрирование задолженности организаций по налогам и сборам: проблемы взыскания. Дис. канд. экон. наук. – М., 2011 г.
6. Michael Brostek. Tax debt collection IRS needs to better manage the collection notices sent to individuals. // United States government Accountability office. 2009. Р-27.
7. Алихин С.Н., Левачева Д.А. Эволюция механизма принудительного взыскания задолженности перед бюджетом. // Налоги. 2018 г. С. 28.
8. Виноходова И.Г. Совершенствование практики взыскания задолженности организаций по налогам и сборам. // Научное статья, 2019 г. С. 22.
9. Tangriqulov A., Xomma A., Toshmatov Sh., Norqo‘ziyev I., Roziqov N. Soliq qarzi va uni undirish. O‘quv qo‘llanma. – Т.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2010. 51-б.
10. Niyazmetov I. Soliq yukining tadbirkorlik subyektlari moliyaviy faoliyatiga va budget daromadlariga ta’siri tahlili. Nomzodlik ishi. Avtoreferat. 2008-yil.
11. Jo‘rayev A. Davlat budgeti daromadlarini shakllantirishning dolzARB muammolari. Doktorlik ishi. Avtoreferat. Т., 2006-yil.
12. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 96-modda. – Т.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020-yil. – 640 bet.
13. Черника Д. (2023) Налоги: учеб. пособие / Под ред.– 2-э. ИНФРА. Стр. 486
14. <http://www.lex.uz> – О’zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
15. <http://www.mf.uz> – О’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti
16. <http://www.soliq.uz> – О’zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi sayti
17. <http://www.stat.uz> – О’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi sayti